



Xorazm viloyati statistika
boshqarmasi




2021- yil yanvar-dekabr oylarida Xorazm viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtini tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.



2021- yil yanvar-dekabr


Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **8 368,6 mlrd. so'mga** yetib, uning nominal hajmi **1 907,4 mlrd. so'mga** oshdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **119,6 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-dekabr oylarida)





Xorazm viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-dekabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	8 368,6	119,6
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	420,4	119,0
Moliyaviy xizmatlar	1 666,0	128,3
Transport xizmatlari	2 008,6	116,5
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>1 909,3</i>	<i>115,3</i>
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	120,7	104,7
Savdo xizmatlari	2 188,4	111,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	251,4	131,7
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	354,9	106,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	168,7	128,4
Ijara xizmatlari	173,3	118,0
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	336,3	131,3
Shaxsiy xizmatlar	288,9	128,0
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	170,2	158,0
Boshqa xizmatlar	220,8	136,6



Xorazm viloyati statistika boshqarmasi

2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan yuqori ko'rsatkich

Nisbatan past ko'rsatkich



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar



Boshqa xizmatlar



Ijara xizmatlari



Me'morchilik sohasidagi xizmatlar



Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar



Yashash va ovqatlanish xizmatlari

Savdo xizmatlari

26,3 %

Transport xizmatlari

24,0%

Moliyaviy xizmatlar

19,9 %

Aloqa va axborotlash - tirish xizmatlari

5,0 %

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

4,2 %

Kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari

4,0 %

Shaxsiy xizmatlar

3,5 %



Xorazm viloyat statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2021- yil yanvar-dekabr oylarida ularning ulushi **26,3 %** ni tashkil etdi.

Kompyuterlar va uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **4,0 %** ga yetgan.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-dekabr oylarida savdo xizmatlarining ulushi umumiylajma hajmda **27,2 %** ni tashkil etgan. 2020- yilning shu davrida kompyuterlar va uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlarning ulushi ham eng kichik bo'lgan – **3,3 %**.


2021- yil yanvar-dekabr oylarida yuqori o'sish me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (**58,0 %**), ta'lif sohasidagi xizmatlar (**6,4 %**), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (**31,7 %**), moliyaviy xizmatlar (**28,3 %**), sog'liqni saqlash xizmatlari (**28,4 %**) va boshqa xizmatlarda (**36,6 %**) qayd etildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-dekabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan (**110,5 %**), moliyaviy xizmatlarda (**124,7 %**) o'sish kuzatilgan.

2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, % da



2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmi savdo xizmatlarining ulushi **26,3 %** ni tashkil etdi, bu esa **2 188,4 mlrd. so'mga** to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-dekabr oylarida ularning hajmi **1 755,2 mlrd. so'mga** yoki umumiylajmi **27,2 %** ga to'g'ri kelgan.

2020- y.

yanvar-dekabr

Xizmatlar hajmi
1 755,2 mlrd. so'm

O'sish sur'ati

97,2 %

Ulushi

27,2 %

Savdo xizmatlari



2021- y.

yanvar-dekabr

Xizmatlar hajmi
2 188,4 mlrd. so'm

O'sish sur'ati

111,5 %

Ulushi

26,3 %

2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-dekabr oylarida chakana savdo xizmatlarining ulushi umumiyl savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtadan uch qismini, aniqrog'i 26,3 % ini tashkil etdi.


Savdo xizmatlari tarkibi

(2021- yil yanvar-dekabr oylarida)

Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosiga, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda



Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)



Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar



Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-dekabr oyida chakana savdo ulushi 77,8 % ga yetgan.

2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingen foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2021- yil yanvar-dekabr oylarida)



Moliyaviy xizmatlar hajmi **1 666,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-dekabr oylarida ularning hajmi **1272,3** mlrd. so'mga teng bo'lgan . 2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **19,9 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-dekabr oylarida ularning ulushi **19,7 %** ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini **393,7** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

Moliyaviy xizmatlarning o'sishi **128,3 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-dekabr oylarida ularning o'sish sur'ati **124,7 %** ga yetgan.



Xorazm viloyati statistika boshqarmasi

2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **91,7 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **5,3 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2021- yil yanvar-dekabr oylarida)



Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmining **92,3 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan. Sug'urta xizmatlarining ulushi **5,2 %** ga to'g'ri kelgan.

2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2021- yil yanvar-dekabr oylarida)

**2020- y.
yanvar-dekabr**

**348,0
mlrd. so'm**

112,7 %

5,4 %

**2021- y.
yanvar-dekabr**

**420,4
mlrd. so'm**

119,0 %

5,0 %





Xorazm viloyati statistika boshqarmasi




2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, **94,2 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

2020- y.
yanvar-dekabr



2021- y.
yanvar-dekabr



Telekommunikatsiya xizmatlari

Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari

Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

Noshirlik xizmatlari

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-dekabr oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **96,2 %** ga yetgan.

2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

**315,4
mlrd. so'm**

**Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi**

**354,9
mlrd. so'm**

**2020- y.
yanvar-
dekabr**



**2021- y.
yanvar-
dekabr**

98,0 %

O'sish sur'atlari, % da

106,4 %

2021- yil yanvar-dekabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **354,9** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi **4,2** % ni tashkil etdi. 2020-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **106,4** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida xizmatlar hajmi **315,4** mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2019- yilga nisbatan o'sish **98,0** % darajasida qayd etilgan.

2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlamanagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm

100,3

120,7

2020- y.
yanvar-
dekabr

2021- y.
yanvar-
dekabr



O'sish
sur'ati, % da

61,3

104,7

2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **20,4** mlrd. so'mga ortdi.



2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

83,8 %

2021- y.
yanvar-dekabr

16,2 %

13,9 %

2020- y.
yanvar-dekabr

86,1 %

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash
bo'yicha xizmatlar

Yashash bo'yicha xizmatlar



2021- yil yanvar-dekabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyligi hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **83,8 %** bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilda ularning ulushi **86,1 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi
 bu – sog'lijni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiya markazlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar

2020- y. yanvar - dekabr

2021- y. yanvar - dekabr

**120,6
mlrd. so'm**

**168,7
mlrd. so'm**

110,5 %

128,4 %

1,9 %

2,0 %

**Xizmatlarning
jami hajmidagi
ulushi**



2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2021- yil yanvar-dekabr oylarida)



2021- yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi eng katta ulush Urganch shahriga tegishli bo'lgan - **34,9 %** (2020- yilda **35,3 %**). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Tuproqqa'l'a tumanida kuzatilgan – **2,4 %**.



Xorazm viloyati statistika boshqarmasi

2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

Shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-dekabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021- y.	2020- y.
Xorazm viloyati	8 368,6	119,6	101,5
Urganch shahar	2 931,8	118,8	103,2
Xiva shahar	367,8	135,6	90,9
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	497,6	119,3	108,2
Gurlan	435,5	116,0	98,9
Qo'shko'pir	444,3	117,2	108,4
Urganch	682,9	117,2	80,0
Hazorasp	607,3	117,3	75,9
Tuproqqa'l'a	196,8	148,9	73,1
Xonqa	568,9	116,4	102,8
Xiva	467,1	130,2	101,6
Shovot	453,0	116,4	102,7
Yangiariq	381,7	115,1	102,8
Yangibozor	333,9	120,7	103,1

** Shahar va tuman bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda.*

2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

4 384,5
ming so'm

Hajmning o'sishi

947,5 ming
so'mga

117,8 %

O'sish sur'ati



2021- yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4 384,5 ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 117,8 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020-yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3 437,0 ming so'mni tashkil etgan.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: 62-224-65-16

Xorazm viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi